

Rasmiy ish hujjatlari tahlili

Tayyorladi: O'zbek tili
kafedrsi katta o'qituvchisi,
f.f.n. Mahsumova S. S.



Rasmiy uslub

Rasmiy uslub rasmiy ish qog'ozlari – hujjatlarni yuritish yo'llarini o'rgatuvchi nutq uslubidir. Hujjatshunoslik davlatchilik bilan bog'liq bo'lib, uning ildizi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Har bir davlatning hujjatlari uning davlat tilida yoziladi. Hujjatlarni to'g'ri va bexato yozish insonning savodxonligi va yozma nutq madaniyati ko'rsatkichidir.

Barcha muassasa va korxonalardagi buyruqlar, tashkiliy-ma'muriy hujjatlardan tortib hukumat tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, farmon va farmoyishlar, xalqaro diplomatik hujjatlar ham rasmiy uslubda yoziladi.



Rasmiy ish qog'ozlari

1. Ariza
2. Tarjimayi hol
3. Tushuntirish xati
4. Ishonchnoma
5. Ma'lumotnoma
6. Taklifnoma
7. Tilxat
8. E'lon
9. Bildirgi
10. Tavsifnoma
11. Tavsiyanoma



Tarjimayi hol tuzilishi

Men, (kim?), (qachon?) (qayerda?) tug`ildim.

Otam – (kim?)(qayerda va qachon tug'ilgan?) (kim bo`lib?) ishlaydi.

Onam -

Men (qachon?)(qaysi?) mактабга о'qishga bordim.

Maktabni (qachon?)(qanday?) bitirdim.

..... (qachon?)(qaysi?) oliy o'quv muassasiiga o'qishga kirdim.

Hozir(qaysi?) fakultetda(nechanchi?) bosqichda
o`qiyapman.


Oilaviy ahvolim.....

Turar joyim.....

Sana.....

Imzo.....

Namuna




Men, Davron Mahmudovich Rasulov, 1988-yilning 22-martida O'zbekiston Respublikasining Chirchiq shahrida ishchi oilasida tug'ildim. Otam, Mahmud Abdullayevich Rasulov, Chirchiq kimyo zavodida chilangar bo'lib ishlaydi. Onam, Mavluda Mahkamovna Rasulova uy bekasi. Opam, Muhabbat Rasulova mакtabda o'qituvchi bo'lib ishlaydi . Ukam, Bahodir Rasulov 5-sinf o'quvchisi. 1994-yil men Chirchiq shahridagi 10-o'rta maktabga o'qishga bordim. Maktabda tahririyat a'zosi edim. Devoriy gazetalarni chiqarishda muntazam ishtirok etardim. 2005-yilda o'rta maktabni bitirib, Toshkent traktor zavodiga elektrik yordamchisi sifatida ishga kirdim. 2006-yil Qurolli Kuchlar safiga xizmatga chaqirildim. Xizmatdan so'ng 2007- yil Toshkent davlat jahon tillari universitetiga o'qishga kirdim. Uylanganman, bir o'g'lim bor. Rafiqam Habiba Rasulova 14-bolalar bog'chasida tarbiyachi bo'lib ishlaydi. O'g'lim Farhod bolalar bog'chasiga qatnaydi.

2014.10.05. (imzo)

D.M. Rasulov

Tarjimayi holdagi xato va kamchiliklarga e'tibor bering.




Men, Yo'Idoshev Qodir Islomovich, 1986-yilning 6-mayida Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani Humson qishlog'ida dehqon oilasida tug'ildim. 2009-yili ushbu qishloqning o'rta mакtabini a'lo baholar bilan tugatdim. Maktab "Kamolot" yoshlar ijtimoiy 9 harakatining a'zosi edim. Maktabni bitirganimdan so'ng Toshkent ekskavator davomida men har xil jamoat topshiriqlarini bajarar edim, jumladan: sardor, zavodiga ishga kirdim. Hozirgi davrda Texnika universitetida tahsil olayapman. Oilamiz besh kishidan iborat. Otam –dehqon, onam – nafaqador. Katta akam Akram – aspirant. Akam Halim Yangi yo'l oziq-ovqat kasb-xunar kollejini bitirgan.

12 oktabr

Yo'Idoshev Q.I.


Quyidagi so'zlarni eslab qoling



Tug'ilmoq –родиться, ishchi oilasida –в семье рабочего, kimyo zavodi – химический завод, chilangar bo'lib ishlamoq – работать слесарем, o'qituvchi bo'lib ishlamoq –работать учителем, uy bekasi – домохозяйка, o'rta maktab – средняя школа, o'qishga kirmoq – поступить учиться, devoriy gazeta –стенная газета, tahririyat a'zosi – член редколлегии, maktabni tugatmoq – окончить школу, ishga kirmoq – поступить на работу, elektrik yordamchisi sifatida – в качестве помощника электрика, harbiy xizmatga chaqirilgan – призван на военную службу, harbiy xizmatdan qaytgan – вернувшийся с военной службы, avvalgi ish joyi –прежнее место работы, uylangan – женат, rafiq – жена, bolalar bog'chasi – детский сад, tarbiyachi bo'lib ishlamoq – работать воспитательницей, bog'chaga qatnamoq –посещать детский сад.

Ariza

- *Ariza* – muayyan tashkilotga yoki biror shaxs nomiga iltimos, taklif yoki shikoyat mazmunida yoziladigan rasmiy hujjatdir. Eng keng tarqalgan va ko'p ishlatiladigan ish qog'ozi bo'lib, barcha idoralarga yozilishi mumkin.



Namuna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
rektori Sh.Sh. Qayumovga
Sardorbek To'rayevdan

ARIZA

Menga O'zbekiston davlat jahon tillari universitetiga kirish uchun tanlov
imtihonlarida qatnashishga ruxsat berishingizni so'rayman.

Arizaga quyidagi hujjatlarimni ilova qilaman:


1. Akademik litseyni bitirganligim to'g'risida guvohnoma.
2. Tug'ilganligim haqidagi guvohnomaning ko'chirilgan nusxasi
3. Sog'lig'im haqida ma'lumotnoma.
4. Tavsifnoma.

sana

(imzo)



Ariza tuzishda ishlatiladigan birikmalarni eslab qoling.



yordam berishingizni so'rayman –прошу оказать помощь,
–прошу помочь, прошу дать,
–прошу предоставить
ruxsat berishingizni so'rayman –прошу разрешить
ruxsat bering –разрешите
kiritishingizni so'rayman –прошу включить
qabul qilishingizni so'rayman –прошу принять
ko'chirishingizni so'rayman –прошу перенести
o'tkazishingizni so'rayman –прошу перевести
ozod qilishingizni so'rayman –прошу освободить
ajratishingizni so'rayman –прошу выделить
tufayli, sababli, uchun, munosabati bilan – поэтому, так как, из - за, в
связи с
chunki –потому что

Tushuntirish xati

- *Tushuntirish xati* o'z burchi, xizmat vazifasini o'tashda yo'l qo'yilgan ayrim noaniqliklarni, xizmat intizomining buzilishi sababini izohlash uchun yoziladigan ish qog'ovi bo'lib, u arizaga o'xshash shaklda yoziladi. Unda *binoan*, *asosan*, *muvofig* ko`makchilari jo`nalish kelishigi qo`shimchasi bilan keladi va asosan rasmiy uslubda ishlataladi.

Namuna



O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti qoshidagi I-akademik litsey direktori J.Xasanovga
2-bosqich talabasi
Shohista G'aniyevadan

TUSHUNTIRISH XATI

Men 2014-yilning 4-apreldidan 20-apreligacha bo'lgan davrda onamning qattiq betobligi tufayli 38 soat mashg'ulotga qatnasha olmadim.

Ilova: Onamning kasalligi haqidagi shifokor ma'lumotnomasi.

10.05.2014

(imzo)

**Quyidagi tushuntirish xatining to‘g‘ri yoki
noto‘g‘ri yozilganini aniqlang.**

TUSHUNTIRISH XATI

Men, Ernazarov 4 may 2010 y. darslarga qatnashmadim. Sababi kasal edim. Shifokordan olingan hujjatni ilova qilishim mumkin

TUSHUNTIRISH XATI

Qattiq kasal bo‘ldim. Shuning uchun men imtihonlarni topshira olmadim. Bu o‘zbek tili va tarix.

Sh. Rahmatov

2015.14.02

Ishonchnoma

- ***Ishonchnoma*** muassasa va shaxslarning o’z nomidan ish ko’rish uchun ikkinchi bir shaxsga vakolat beradigan yozma hujjat. Ishonchnoma 2 xil bo’ladi: rasmiy ishonchnoma va shaxsiy ishonchnoma. Rasmiy ishonchnoma biron-bir idora, muassasa nomidan belgilangan qoidalar asosida yoziladi. Shaxsiy ishonchnoma esa ayrim shaxslar nomidan erkin yoziladi.

Namuna

ISHONCHNOMA


Men, O'ZDJTU rus filologiyasi fakultetining I bosqich talabasi G'aniyeva Dilfuza noyabr oyi uchun stipendiyamni olishga ukam G'aniyev Shohruhga ishonch bildiraman.

(Pasport ma'lumotlari:)

2014.11.18
(G'aniyeva D.)


(imzo)

Quyidagi so‘z birikmalarini eslab qoling.



Olish uchun ishonch bildiraman – доверяю получить, boshqarishga ishonch bildiraman – доверяю управлять, o‘quv-uslubiy adabiyoti – учебно-методическая литература, jo‘natma-posylka, qiymatdor posilka (banderol) – ценная посылка (бандероль), pul jo‘natmasi – денежный перевод, shahodatnoma - атtestat, buyurtma xati – заказное письмо, yumaloq muhr – круглая печать, yuk – груз, ta’minot bo‘limi boshlig‘i – начальник отдела снабжения, muassasa – учреждение, hisob raqami bo‘yicha olish – получить по счету, muassasa va maktab uchun ajratilgan – выделенные для школы и учреждения, davlat raqami – государственный номер

Nuqtalar o‘rniga familiya, manzil, hujjat haqidagi ma’lumotlarni yozing.

- 
1. Men yon qo’shnim, ... , 7-aloqa bo‘limidan mening nomimga kelgan pochta jo‘natmasini olish uchun ishonch bildiraman.
 2. Men turmush o‘rtog‘im, ... , madaniyat saroyi kassasidan mening maoshimni olishga ishonch bildiraman.
 3. Men I kurs talabasi do‘stim, ... institut kassasidan menga tegishli mart oyining stipendiyasini olish uchun ishonch bildiraman.

Tilxat

TILXAT


Men, Navoiy nomidagi jamoa xo'jaligi brigada boshlig'i Karim Salimovich Rahimov, jamoa xo'jaligi cassiri Dilbar Salimovadan brigada a'zolarining iyun oyiga tegishli 164500 (bir yuz oltmishto'rt ming besh yuz) so'm miqdoridagi ish haqini targatish uchun oldim.

2014.05.07.

(imzo)

K.S.Rahimov

Quyidagi so‘z birikmalarini eslab qoling.



Sport buyumi – спортивный инвентарь, xo‘jalik buyumi – хозяйствственный инвентарь, chipta sotib olish uchun pul – деньги на покупку билетов, xodimlar maoshi – зарплата сотрудников, umumiy miqdorda – на общую сумму, umumiy narxi – общая стоимость, ombor mudiri – заведующий складом, tanishish uchun – для ознакомления, olish uchun – для приобретения, vaqtincha foydalanish uchun – на временное пользование, bayram otkritkalari va plakatlar – праздничные открытки и плакаты, qurilish tresti – строительный трест, tayyor buyumlar – готовые изделия, xo‘jalik qismi – хозяйственная часть, muassasa – учреждение, kasaba tashkiloti – профсоюзная организация, shanbalik – субботник, almashtirish tarmog‘i – обменный пункт.

Tilxatning yozilishidagi va mazmunidagi xatolarni toping va tuzating.



4-magazin direktori
Ibrohimovga
sport seksiyasi raisi
R.Qurbanovdan

T I L X A T


Tilxat berdim Ibrohimovga shul haqidakim, men
har xil sport buyumlarini oldim: shaxmatlar, voleybol to‘plari,
futbol to‘plari ... Hammasi uchun 395 000 so‘m to‘ladim.

Qurbanov

Bildirgi

- *Bildirgi* yoki *bildirishnoma* xabar berish to`g`risida yoziladigan rasmiy ish qog`ozi bo`lib, eng qadimiy hujjat namunalaridan biridir. XI asrda yashagan turkiyshunos olim Mahmud Qoshg`ariyning «Devonu lug`otit turk» asarida mazkur hujjat «Bildirgi» nomi bilan qayd qilib o`tilgan. Ushbu ish qog`ozi shaxs tomonidan o`z ish majburiytining bajarilganligini bidirish, ma'lum qilish maqsadida yoziladi. Shuning uchun unda albatta *bildiraman*, *ma'lum qilaman* so'zlari qo'llanishi kerak bo'ladi.

Namuna

A photograph of a young woman with blonde hair, smiling broadly. She is wearing a dark blazer over a light-colored top. In her hands, she holds a white certificate or diploma. In the background, another person's head and shoulders are visible, slightly blurred.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
rektori Sh.Sh. Qayumovga
O'zbek tili kafedrasи
o'qituvchisi Sh. Zoitovadan

Bildiri

Sizga shuni ma'lum qilamanki, men 2014-yil 26-avgustda navbatdagi mehnat ta'tilidan qaytib, o'z xizmat vazifamni bajarishga kirishdim.

2014-yil 26-avgust

(imzo)

Quyidagi vaziyatlarga asoslanib kerakli hujjatlarni yozing.

Agar siz:

- 1) imtihonlarni muddatidan avval topshirmoqchi bo'lsangiz;**
- 2) ishga kirishganligingizni ma'lum qilsangiz;**
- 3) hasharga kelmadingiz, chunki siz betob edingiz.;**
- 4) bir necha kunga semestr mobaynida uyga ketmoqchi bo'lsangiz;**
- 5) siz 10 kun ichida 20 soat amaliy va 10 soat ma'ruza mashg'ulotlarini qoldirdingiz, chunki kasal bo'lib qoldingiz.**
- 6) cassadan 3450000 so'm miqdoridagi stipendiyani tarqatish uchun olsangiz;**
- 7) 3-paradagi tarix darsi bo'Imaganligini ma'lum qilsangiz;**
- 8) boshqa lavozimga o'tkazishlarini so'rasangiz;**
- 9) akademik ta'til berishlarini so'rasangiz;**
- 10) 2015-yil 12-aprel kuni yo'nalishda avtobus bo'Imaganligi uchun siz ishga kech qoldingiz.**
- 11) moddiy yordam ko'rsatishlarini istasangiz;**
- 12) mart oyining stipendiyasini olish uchun ishonch bildirsangiz**

Adabiyotlar

1. Muxitdinova X., Z.Salisheva, X.Po'latova. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlarining rusiyzabon guruhlari uchun darslik). - Toshkent, "O'qituvchi". -2006.
2. Po'latov A., Mo'minova T., Po'latova I. Dunyoviy o'zbek tili. - Toshkent, O'zMU. -2003.
3. Rasulov R., Usmonova M., Mirazizov A. O'zbek tili. - Toshkent, TDPU. - .
4. Qahhorova H., Muhamedova S. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlarining rus guruhlari uchun darslik). - Toshkent, O'zMU. - 2004
5. Mahmudov N., Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., O'zbek tilida ish yuritish. - Toshkent, O'zE. - 2001.
6. Ahmedova G., Karimjonova V. O'zbek tili (oliy o'quv yurtlari, kollej va akademik litsey rus guruhlari uchun). - Toshkent, «Ijod dunyosi». - 2001.
7. Rasulov R., Usmonova M., Mirazizov A. O'zbek tili. TDPU. -2004..
8. Muxitdinova X., Ikromova N. O'qituvchi kitobi (uslubiy qo'llanma). - Toshkent, «Ilm-Ziyo». - 2005.

Internet ma'lumotlari:

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz

E'tiboringiz uchun rahmat.

